




**TOSHKENT VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**

**TOSHKENT VILOYATIDA
QURILISH ISHLARI**


**2024- YIL
YANVAR-DEKABR**

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida, Toshkent viloyatida jami **24143,9** mlrd soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan **110,1%** ni tashkil etdi.



Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da

Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxona va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.



Yirik qurilish tashkilotlari

Norasmiy sektor

Kichik korxona
va mikrofirmalar



2025- yil 1-yanvar holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar, *birlikda*



1211

•Bino va inshootlar qurish

339

•Fuqarolik obyektlarini qurish

824

•Ixtisoslashtirilgan
qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning soni 2023- yilning shu davriga nisbatan 81,9 foizni tashkil etdi.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaranganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 51,0 foiz ulushni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 81,3 foizga yetdi;

fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 14,3foiz ulushni tashkil etib, o'sish sur'ati 90,6 foizga yetdi;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi esa 34,7 foiz ulushni va o'tgan yilga nisbatan 79,5foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxona va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga:		o'tgan yilga nisbatan, %da
	01.01.2025- y.	01.01.2024- y.	
Toshkent viloyati	2374	2900	81,9
<i>shaharlar:</i>			
Nurafshon	103	122	84,4
Olmalik	107	139	77
Angren	139	170	81,8
Bekobod	97	119	81,5
Ohangaron	72	109	66,1
Chirchiq	265	299	88,6
Yangiyo'l	69	75	92
<i>tumanlar:</i>			
Oqqo'rg'on	49	58	84,5
Ohangaron	61	59	103,4
Bekobod	65	85	76,5
Bo'stonliq	101	119	84,9
Bo'ka	74	103	71,8
Quyi Chirchiq	47	62	75,8
Zangiota	196	230	85,2
Yuqori Chirchiq	140	185	75,7
Qibray	253	290	87,2
Parkent	78	90	86,7
Piskent	52	62	83,9
O'rta Chirchiq	106	147	72,1
Chinoz	65	90	72,2
Yangiyo'l	91	129	70,5
Toshkent	144	158	91,1

2025- yil 1-yanvar holatiga ko'ra Toshkent viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da


Qibray (10,6)



Chirchiq sh. (11,2)




Zangiota (8,3)





Qurilish ishlari 2024- yil yanvar- dekabr oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	shu jumladan:		
		yirik qurilish tashkilotlari	kichik va mikrofimalar	norasmiy sektor
Toshkent viloyati	24143,9	4080,4	9832,5	10231
shaharlar:				
Nurafshon	749	16,6	649,3	83,1
Olmalik	2560,1	2083,4	364,6	112,1
Angren	513,1	54,4	356,4	102,3
Bekobod	657,4	279,5	311,5	66,4
Ohangaron	151,7	40	48,8	62,9
Chirchiq	1433,8	94,2	1190,7	148,9
Yangiyo'l	367,1	2,3	294,2	70,6
tumanlar:				
Oqqo'rg'on	403,3	0	291	112,3
Ohangaron	341,6	1	216,2	124,4
Bekobod	175,8	8,6	92	75,2
Bo'stonliq	664	165,9	155,7	342,4
Bo'ka	273,2	24,7	106	142,5
Quyi Chirchiq	596,5	6,7	461	128,8
Zangiota	1258,1	34,3	786,9	436,9
Yuqori Chirchiq	1059,5	134,2	563,3	362
Qibray	1537	605,3	320,1	611,6
Parkent	614,7	51,7	383	180
Piskent	224,9	0	119,6	105,3
O'rta Chirchiq	619,8	0	316	303,8
Chinoz	288,3	6,6	81,4	200,3
Yangiyo'l	1410,4	40,4	1138,5	231,5
Toshkent	976,5	13,3	285,2	678



2024- yilning yanvar-dekabr oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 4080,4 mlrd so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2023- yilga nisbatan 113,9 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2023- yildagi ko'rsatkich darajasidan 0,3 % punktga kamayib 16,9 % ni tashkil etdi.

2024- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 40,7 % ni to'g'ri kelib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 1,4 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2023- yilning yanvar- dekabr oylariga nisbatan 108,6 % ni tashkil etgan holda 9832,5 mlrd so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxona va mikrofirmalar, ulushi, %da

40,7

2024- yil
Yanvar-dekabr

41,9

2023- yil
Yanvar- dekabr



MA'LUMOT UCHUN: joriy hisobot davrida kichik korxona va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Chirchiq shaxri (1190,7mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 12,1 %), Yangiyo'l tumani(1138,5 so'm yoki 11,6 %) Zangiota tumani (786,9 mlrd so'm yoki 8,0 %) ga to'g'ri keldi.



Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi 42,4 % tashkil etdi yoki 10231,0 mlrd so'm miqdorida qayd etildi. 2023- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 110,0 % ni tashkil etdi.

2023 yil
yanvar-dekabr

8375,2
mlrd so'm


2024- yil
yanvar -dekabr

10231,0
mlrd so'm

41,5%

42,4%

Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda



Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **481,8** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **23662,1** mlrd so'm qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **2,0 %** va **98,0 %** ni tashkil etdi.



Davlat mulki



Nodavlat mulk

Ma'lumot uchun: Qurilish biror inshootni tayyorlash jarayoni, shuningdek shunday jarayon ketayotgan joydir. Qurilish murakkab jarayon bo'lib, unda bir necha vazifalar amalga oshiriladi. Qurilish — moddiy ishlab chiqarishning yirik sohalaridan biri; turli maqsadlardagi bino va inshootlarni qurish va rekonstruksiya qilish; ishni yuri-tish uchun foydalaniladigan hudud bilan birga qurilayotgan bino (inshoot); keng ma'noda yaratuvchilik jarayoni. Tugallangan va foydalanishga topshirish uchun tayyorlangan ishlab chiqarish korxonalari, turar joylar, jamoat binolari, inshootlari va boshqa obyektlar Qurilish mahsu-lotlari hisoblanadi.

Qurilish O'zbekiston Respublikasidagi moddiy ishlab chiqarishning eng muhim tarmoqlaridan birini tashkil etadi. Respublika iqtisodiyotida yalpi ichki mahsulot tarkibida salmog'iga ko'ra Qurilish sanoat va qishloq xo'jaligidan keyin 3-o'rinda turadi.

Investitsiyalar va qurilish statistikasi
bo'limi

Aloqa telefoni: (71) 202-86-70